

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Matematika, fizika va mexanika fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Kosmik monitoring natijalari asosida suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligi amaliy nazariyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - suv omborlari to‘g‘onlaridagi uzluksiz kosmik monitoring kuzatuv nuqtalarining siljishi, cho‘kishi bo‘yicha ma’lumotlar olinadi hamda atroflicha tahlil qilinadi; - suv omborlari to‘g‘onlarining kuchlanish-deformatsiya holatlarini kosmik monitoring kuzatish nuqtalari uchun aniqlash metodikasi ishlab chiqiladi; - suv omborlari to‘g‘onlarining kuchlanganlik – deformatsiyalanganlik holati va diskret nuqtalarining siljishi va cho‘kishi suv omboridagi suv sathining va to‘g‘on namligini o‘zgarishini hisobga olib aniqlanadi; - sonli usullar va uzluksiz kosmik monitoring orqali to‘g‘on diskret nuqtalari uchun olingan natijalar taqqoslanib, to‘g‘onning mustahkamligini baholash usuli ishlab chiqiladi; - nazariy usullar va kosmik monitoring natijalarini o‘zaro taqqoslashga asoslangan suv omborlari to‘g‘onlarining zilzilabardoshligini amaliy nazariyasi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Suv xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.


Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Matematika, fizika va mexanika fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
2.	Seysmik ta'sirlarda yer osti quvurlaridagi elastik-plastik deformatsiyalar va ularning shikastlanish darajasini baholash uslubini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - seysmik ta'sirlarda yer osti quvurlari shikastlanish darajasiga grunt sharoitini ta'siri tahlil qilinadi va baholanadi; - seysmik ta'sirlarda yer osti quvurlarida elastik plastik deformatsiyalarni yuzaga kelish sabablari aniqlanadi; - nazariy hisoblashlar asosida yer osti quvurlarini shikastlanish darajasiga grunt sharoiti ta'sirini baholash uslubini ishlab chiqiladi; - seysmik ta'sirlarda yer osti quvurlari shikastlanishlarini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi; - seysmik ta'sirlarda yer osti quvurlaridagi elastik-plastik deformatsiyalar va ularning shikastlanish darajasini baholash uslubini ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy tadqiqot loyihalar mavzusi

“Matematika, fizika va mexanika fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy tadqiqot loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
3.	Ko‘p qavatli binolarning seysmik mustahkamlikka hisoblash usullarini gruntining xossalari inobatga olgan holda takomillashtirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqotdan kutilayotgan natijalar: - plastinasimon inshootlarning takomillashtirilgan bimomentli nazariyasi asosida grunning deformatsiyasini inobatga olib ko‘p qavatli binoning dinamik holatini ifodalovchi matematik fazoviy modeli takomillashtiriladi; - ko‘p qavatli va baland binolarning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholashning sonli usullari va algoritmlari ishlab chiqiladi; - binolarning seysmik mustahkamlikka hisoblash usullarini nazariy asoslash maqsadida, ko‘p qavatli binolarning fazoviy modelini turli intensivlikdagi seysmik ta’sirlar bo‘yicha sonli hisoblash ishlari o‘tkaziladi va natijalar tahlil qilinadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.